

TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Ortiqova Surayyo Xolmirza qizi

Qashqadaryo viloyat Yakkabog' tumani 67- maktabda texnologiya fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada texnologiya fanini o'qitish jarayoni ushbu jarayonda zamonaviy metodlardan foydalanish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lif, texnologiya, ko'nikma, professional ta'lif, modernizatsiya, metod, mutaxassis.*

Mamlakatimizda ta'lif sohasida olib borilayoygan yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzlusiz ta'lif tizimining barcha bo'g'lnlari jumladan, oliy ta'limda ham zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularda yangi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishni, o'z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalana olish mahoratini oshirishni taqozo etmoqda.

Texnologiya ta'lifini modernizatsiyalashda maktabgacha ta'lif tashkiloti, umumiyl o'rta ta'lif, professional ta'lif va oliy ta'lif tizimlarining o'zaro integratsiya jarayonlarini bosqichma-bosqich, oddiydan-murakkabga qarab yo'lga qo'yilishi natijasida ishlab chiqarish sohalari uchun yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishiladi.

Texnologiya ta'lifini O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiysi, 2025-yilgacha O'zbekiston sanoatining rivojlanishi konsepsiysi, fan taraqqiyoti va texnik-texnologiyalarning rivojlanishi, bozor munosabatlari va inson kapitaliga qo'yilayotgan yangi talablar asosida modernizatsiyalash lozim. Hozirgi vaqtida umumiyl o'rta ta'lif maktablarida o'qitilayotgan texnologiya fanining amaldagi holati va to'plangan tajribalar tahlilidan quyidagilar ma'lum bo'ldi: umumiyl o'rta ta'lif maktablarida o'quvchilarga ta'lif berishning zamonaviy innovatsion uslublarini isloh qilish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan industrial-texnologik lokomotivlari qatoriga kirishi, ya'ni 2030-yilga kelib iqtisodiyotning sanoat va texnologik tarmoqlari bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga sharoit yaratish muhim shartlardan biridir.

Maktabdagagi texnologiya ta'lifi va tarbiyasining maqsadi: o'quvchilarga mehnatga muhabbat va mehnat ahliga hurmat tuyg'usini singdirishdan; o'quvchilarni hozirgi zamon sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, qurilish, transport, xizmat ko'rsatish sohalari asoslari va texnologikjarayonlar bilan tanishtirishdan; o'qish va ijtimoiy foydali ish jarayonida ularda mehnat ko'nikmalari va mahoratini hosil qilishdan; ongli ravishda kasb tanlashga va boshlang'ich hunar ta'lifini olishga undashdan iborat.

Amaliy tayyorlash texnologiya fanining muhim qismlaridan biri hisoblanadi.

U o'zaro bog'langan bir necha elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish, kerakli operatsiyalarni to'g'ri va ratsional amalga oshira bilish, ya'ni u

yoki bu materialga ma'lum izchillikda ishlov bera borish, yo'l qo'yilgan xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'rيلay olish kabilardan tarkib topadi.

"Texnologiya" fanining o'ziga xos xususiyati o'quvchilarni ma'naviy va moddiy madaniyat dunyosiga jalb qilishdir.

Agar o'quvchilar adabiyot, tarix va boshqa darslarda ma'naviy madaniyat bilan tanishsalar, unda zamonaviy inson bo'lgan moddiy madaniyat dunyosi boshqa maktab fanlarini hisobga olmaydi, bu esa o'quvchilarni zamonaviy jamiyatga moslashishini qiyinlashtiradi. Moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyatdan farqli o'laroq, inson faoliyati va uning rivojlanishining barcha sohalarini qamra boladi. Bu vositalar, uy-joy, maishiy buyumlar, kiyim-kechak, oziqovqat va boshqalar.

Moddiy va ma'naviy madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson hayotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. "Texnologiya" fani maktab o'quvchilari uchun umumiyligi ta'limining kerakli qismidir, ularga qo'l mehnati va mexanizatsiyalashgan mehnat asoslarini, texnologiyani boshqarish va olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatini beradi.

Maktab o'quvchilarini uyni boshqarish texnologiyalari bo'yicha o'qitish - materiallarni, energiyani, ma'lumotni, tabiiy va ijtimoiy muhit ob'ektlarini konvertatsiya qilish va ulardan foydalanishning aniq jarayonlarini ishlab chiqishga asoslangan. Boshlang'ich maktab bosqichida umumta'lim muassasalarida yoshlarni texnologik tayyorlashning o'zgarmas ta'limiy maqsadlari quyidagilardan iborat: texnologik savodxonlikni,

- ✓ texnologik madaniyatni,

- ✓ mehnat madaniyatini ,

- ✓ o'quvchilar o'rtasida ishbilarmon shaxslararo munosabatlarning etikasini shakllantirish,

- ✓ ijodiy faoliyatni rivojlantirish,

- ✓ kasbni o'zi ongli va mustaqil ravishda belgilashga tayyorlash,

- ✓ keyinchalik jamiyatda ijtimoiy va mehnatga moslashish.

Shunga ko'ra, o'rganilayotgan texnologiyaning turidan qat'i nazar, "Texnologiya" yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturining mazmuni materialni quyidagi so'nggi ta'lim yo'nalishlarida o'rganishni ta'minlaydi.

- texnologik madaniyat;

- zamonaviy ishlab chiqarishning umumiyligi texnologiyalari;

- mehnat madaniyati va estetikasi;

- texnik ma'lumotlarni olish, qayta ishlov berish, saqlash va ulardan foydalanish;

- rasm, grafika, dizayn asoslari;

kasblar olami bilan tanishish, kasb-hunar ta'limi va ishga joylashish rejalarini tuzish;

- texnologik jarayonlarning atrof-muhit va inson salomatligiga ta'siri;

- san'at va hunarmandchilik, dizayn faoliyati;

- texnika va texnologiyalar rivojlanishining tarixi va istiqbollari, ijtimoiy oqibatlari.

Texnologiya darslari o'quvchilarga quvonch bag'ishlaydi.

Chunki ular bu darsda o'z mehnatlarining rohatini ko'radi, bajargan ishlaridan zavqlanadi, bu esa o'z navbatida o'quvchilarda bir qancha ijobiy hislatlarni shakllanishiga yordam beradi. Texnologiya darslarida o'quvchilarning bilim doirasi kengayadi, mehnatga bo'lган hurmati oshib boradi, kasbga bo'lган qiziqish uyg'onadi.

Bu jarayonlar sodir bo'lishi uchun esa o'qituvchi darsni samarali tashkil qilishi va har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi kerak bo'ladi. Texnologiya darslarida samaradorlikka erishishning hamda o'quvchilarning qiziqishini oshirishning yo'llari ko'p. Quyida ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Texnologiya darslarida uyshtiriladigan sayohatlar - dars mavzusidan kelib chiqqan holda maktab rahbarining ruxsati bilan sayohatlarni rejalashtirishni dars jarayonlarida yoki darsdan bo'sh vaqtarda ham tashkil qilsa bo'ladi.

O'quvchilar bilan birlgilikda milliy hunarmandchilik uylari, muzeylarga, ko'p yillik tajribaga ega hunarmandlar va duradgorlar oldiga borish ularning qo'l mehnatlarini tomosha qilish, tayyorlanish texnologiyasi bilan tanishish ularga o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Texnologiya darslarida uyshtiriladigan sayohatlar davomida o'quvchilar duradgorlik, chilangarlik, tikuvchilik hamda pazandachilik sohalarga oid ko'plab kasb-hunarlar bilan tanishadilar.

Bu esa o'quvchilarni keljak hayotlarida shu kabi kasb-hunarlardan birini egallab, sohaning mohir mutaxassisini bo'lib yetishishlariga qiziqishlarini oshishiga ham sabab bo'ladi.

Texnologiya dars jarayonida AKTdan foydalanish- hozirda hech bir sohani AKTsiz tasavvur qilishni imkonni yo'q. Texnologiya darslari amaliy mehnat jarayonlariga asoslangan bo'lsada, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish dars jarayonining muvaffaqiyatlari o'tishiga yordam beradi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari rangli qog'ozdan har xil gullar, maketlar, tabriknomalar, turli ko'rinishdagi o'yinchoqlar, parranda va jonivorlar shaklini yasash, gazlamalardan ajoyib buyumlar tayyorlashni o'rganib boradilar. Dars jarayonida faqatgina bitta usuldan foydalanib mehnat jarayonlarini tashkil qilish o'quvchilar uchun ozroq zerikarli bo'lib qolishi mumkin.

Shuning uchun o'qituvchi yangi dars yuzasidan izlanishi, yangi materiallarni yig'ishi kerak bo'ladi. Hozirda inson mehnati tufayliko'plab go'zalliklar yaratilmoqda. Bunday qo'l ishlarini topish va ularni o'quvchilar bilan birlgilikda bahramand bo'lishi uchun ko'pgina internet saytlari mavjud.

Oddiygina qog'ozdan gul yasash jarayonini mingdan ortiq turi mavjud. Shunga o'xshash eng yaxshi namunalarni izlab topish va ularni o'quvchilarga ko'rsatish natijasida darsda yanada ko'proq o'quvchilarni qiziqishlarini oshishiga erishish mumkin.

Bu jarayon o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlanishiga ya'ni faqat ko'rgan narsasini yasashni emas, balki o'zlari mustaqil ravishda ijod qilishiga turtki bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. "Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, Kasb tanlashga yo'llash", O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014 y.
2. P.Magzumov.O'quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo'yicha bilim va ko'nikmalari sifati.T. 1994y
3. Tohirov O'.O. va boshqalar. Texnologiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: "ILM-ZIYO" nashriyot uyi, 2019.-160 b.
4. S.Bekmurodova. Texnologiya fanini o'qitishga yangicha yondashuv. Metodik qo'llanma. – Toshkent. 2017.-140 b.
5. Tohirov O'.O. Texnologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017.-72